

**O'QUVCHI YOSHLARNI MUSTAQIL KASBIY FAOLIYAT  
TURLARIGA YO'NALTIRISHNING IJTIMOIY  
PSIXOLOGIK OMILLARI**

*Xaydarov Ismoil Olloqulovich*  
*O'zbekiston respublikasi Jamoat xavfsizligi*  
*Universiteti dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqil hayot bo'sag'asida turgan yoshlar kasbiy o'z-o'zini anglashning juda muhim komponenti - o'z hatti-harakati uchun javobgarlik va uning (yaxshimi, yomonmi!) natijasiga faqat o'zi sababchi ekanligini his qilish xususiyati shakllanganligidir. Ya'ni, yoshlar uchun nafaqat boshqa odamlar, balki o'z his-tuyg'ulari, kechinmalari ham kuzatuv ob'ektiga aylanadi. Uning «Men-konsepsiya»si o'z istiqboli uchun faol harakatga undovchi kuch (ustanovka) sifatida namoyon bo'lishi haqidagi mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** O'z-o'ziga emotSIONAL munosabat, «Men kimman?», «Qanday odamman?», «Men nimaga intilyapman?» va “Meni qo'limdan nimalar keladi”?, shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoyalash

Hozirgi kunda jahon hamjamiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, iqtisodiyotidagi beqaror vaziyat va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollarining keskin o'sib borayotganligi, zamonaviy bozor sharoitida, bandlik masalalarida davlat rolining keskin pasayishi natijasida, hozirgi zamon yoshlarining o'z kasbiy kelajagi haqida mustaqil qaror qabul qilishlarida ikkilanishlar borligi kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu muammoga jiddiy yondashgan holda psixologik va sotsiologik ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni, taqqozo etadi.

Mustaqil hayot bo'sag'asida turgan yoshlar katta mehnat bozorida o'ziga mos va o'ziga xos kasb-hunar tanlashga yoki shaxsiy biznesini ochishga intilishmoqda, ba'zi bir yoshlar esa, biror-bir faoliyat turini tanlashga qiynalayotganligi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonida “Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, 10-11-sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyotini joriy etish, professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish yuzasidan dolzarb qilib qo'yilganligi bugungi kunning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Bolalarda kasbiy qiziqishlarning erta namoyon bo'lishi qadimdan ma'lum. Har-bir shaxsda yoshligidanoq ma'lum bir kasb-hunarga daslabki havas paydo bo'ladi. Bu havas aslida shu kasbga nisbatan tabiatdan berilgan moyillik bo'ladi. Bu

moyillikning layoqatga aylanishi uchun birinchi navbatda sezgir ota-onaning e'tibori, ijtimoiy muhit, uzluksiz ta'lim-tarbiya hamda ta'lim muassasalarida to'g'ri tashkil etilgan kasb-hunarlargiga yo'naltirish ishlar samradorligiga bog'liq.

O'quvchi yoshlarda kasblar to'g'risidagi dastlabki tasavvurlarini yetarli darajada shakillanib, takomillashib, mustahkamlanib borishi kelgusi hayot yo'llarida ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda yoshlarning kasbiy tayyorgarligiga e'tibor qaratish, nafaqat ma'naviy ruhiy ahamiyatga ega balki jiddiy ravishda iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyat ham kasb etib, inson ongingin mahsuli, muhimligi jamiyat rivoji uchun o'z hisasini qo'shishi bilan belgilanadi.

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rasatadi-ki, mustaqil hayot bo'sag'asida turgan yoshlarga katta mehnat bozorida o'ziga mos kasb tanlashi yoki shaxsiy biznesini ochishga intilayotgan va biror-bir faoliyat turini tanlashga, qiynalayotgan yoshllar ko'pchilikni tashkil etmoqda.

Hayotda ilk bor o'zining mustaqil mehnat faoliyatini boshlovchilar birinchi navbatda o'zligini anglashi, o'zining ichki va tashqi imkoniyatlariga baho bera olishi o'ziga «Men kimman?», «Qanday odamman?», «Men nimaga intilyapman?» va “Meni qo'limdan nimalar keladi”? degan savollarga javob berishi kerak. Shunday savollarni o'ziga bera olgan har bir shaxs psixik taraqqiyot bosqichida to'g'ri shakllanayotganligidan dalolat beradi. Aksincha bunday savollarni o'ziga berib ko'rмаган va berishni ham xohlamayotgan ba'zi bir yoshlar, yoshi o'sib borayotganligiga qaramay betashvish yoshlikdan voz kecha olmayotganliklari ham kuzatilmoqda.

O'zligini anglash – bu o'z ichki dunyosini kashf qilish, u haqda yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish, o'z-o'ziga emotsional munosabat, aqliy, axloqiy va irodaviy sifatlarini baholash (o'z-o'zini baholash)dir.

Har qanday shaxs o'z hayotini yaxshilashga, yaxshi yashashga intiladi. Buning uchun;

**birinchidan**, buni xohlashi kerak;

**ikkinchidan**, bunga o'zini tayyorlash va o'z imkoniyatlarini chegarasini bilishi kerak;

**uchunchidan** bunga erishish uchun tinimsiz mehnat va harakat qilishi kerak bo'ladi.

Mustaqil hayot bo'sag'asida turgan yoshlar o'zlikni anglashning juda muhim komponenti - o'z hatti-harakati uchun javobgarlik va uning (yaxshimi, yomonmi!) natijasiga faqat o'zi sababchi ekanligini his qilish xususiyati shakllanganligidir. Ya'ni, yoshlar uchun nafaqat boshqa odamlar, balki o'z his-tuyg'ulari, kechinmalari ham kuzatuv ob'ektiga aylanadi. Uning «Men-konsepsiya»si o'z istiqboli uchun faol harakatga undovchi kuch (ustanovka) sifatida namoyon bo'lishidir.

Ma'lumki, hozirgi vaqtida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarida—ularni shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqishlari asosida hamda jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashga tayyorlash bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan, integral xususiyatga ega juda ko'p ilmiy-amaliy faoliyatlar olib borilmoqda. Asosiy maqsad yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashga qaratilgan

Biz o'z izlanishlarimizda aynan umumta'lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari bitiruvchi yoshlarni mustaqil faoliyatlarini boshlashda muvaffaqiyatga erishiinig psixologik ommillarini aniqlashga harakat qildiik.

Kimda-kim "mustaqil" yoki "birovning qo'lida" faoliyat ko'rsatishga qaror qilgan bo'lsa, tanlashdan oldin albatta yaxshilab fikr yuritishi hamda ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilib ko'rishga o'rgatish zarur. Bu;

- **birinchidan**, to'g'ri qaror qabul qilish kafolatini ta'minlaydi;
- **ikkinchidan**, Sizga xususiy faoliyat mavzusiga doir masalalarda maslahat bergen holda ko'rsatmalar bilan hamrohlik qiladi;
- **uchinchidan** "Mustaqil faoliyat" turini tanlash mavzusiga doir masalalarda yordam beradi;

Demak, to'g'ridan—to'g'ri shaxsan murojaat qilishga o'tamiz.

➤ **Nima Sizni mustaqil faoliyatni boshlashga undayapti?**

- yoshlardan xususiy tadbirkor bo'lganlar soni ko'pligi;
- raqobat kuchayaib borayotganligi ;
- xususiy biznesga keng yo'l ochilayotganligi;
- meni qo'limdan keladi, degan shaxsiy fikr va tahlil bo'lishiga erishish.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida yoshlarni "Kim bo'lsam ekan"? , "Qanday faoliyat turi bilan shug'ullansam ekan"? degan o'y-fikrlar qamrab oladi. Bundan tashqari doimiy ish o'rni topmagan va shuning uchun mustaqil bo'lishga intilayotgan mustaqil faoliyat yurituvchilar ham bor. Shu tufayli bozor haddan ziyod to'la, raqobat shafqatsizlarcha qattiqdir.

Yuqoridagilarni inobatga olib, ta'lim muassasalarining kasb-hunarga yo'naltirish ishlari asosiy ikkita maqsadga xizmat qiladi:

**birinchidan** - shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoyalashga, bunda shaxs o'z qiziqishi, moyilliği va qobiliyatlariga mos bo'lgan kasb-hunarni tanlasa, shu kasbni muvaffaqiyatlì o'zlashtirib ham kasbiy ham moddiy tomonidan salmoqli natijalarga tezroq erishadi.

**ikkinchidan** - mehnat bozoridagi imkoniyatlari va salohiyatlari to'g'ri va oqilona taqsimlanadi buning natijasida mamlakatni iqtisodiy qudratini mustahkamlashga o'z hissasini qo'shami. Bundan xulosa shu-ki, kasb-hunarga to'g'ri va oqilona yo'naltirish ishlarining yakuniy natijasi, alohida shaxsga hamda butun bir davlatga aniq foyda keltiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qarash imkoniyati yaratiladi.

Shaxsning biror bir kasbga intilishi, avvalambor shu faoliyat turiga ijobiy munosabat bilan yondashishida namoyon bo‘ladi. Natijada o‘sha faoliyat turi, qiziqarli bo‘lib qolmay, balki ish unumdarligi o‘sib, sifati va samaradorligi oshib boradi. Shuning bilan birgalikda, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit va mehnat faoliyatining ijobiy samarasini ta’sirida insondagi mavjud tabiiy berilgan layoqatlar asta-sekinlik bilan qobiliyat darajasiga va undan keyingi pog‘onalarga ko‘tariladi.

Mustaqil hayot bo‘sag‘asida turgan o‘smir yoshlarni o‘zlikni anglashning juda muhim komponenti - o‘z hatti-harakati uchun javobgarlik va uning (yaxshimi, yomonmi) natijasiga faqat o‘zi sababchi ekanligini his qilish xususiyatini shakllantirish ya’ni, yoshlar uchun nafaqat boshqa odamlar, balki o‘z his-tuyg‘ulari, kechinmalari ham kuzatuv ob’ektiga aylanadi. Uning «Men-konsepsiya»si o‘z istiqboli uchun faol harakatga undovchi kuch (ustanovka) sifatida namoyon bo‘lishidir.

**Xulosa qilib** aytganda, biz o‘z izlanishlarimizda aynan umumta’lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari bitiruvchi yoshlarni mustaqil faoliyatga yo‘naltirish va muvaffaqiyatga erishishning ijtimoiy-psixologik ommillarini aniqlashga harakat qildiik. Bu esa o‘z navbatida mifik o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda o‘quvchi shaxsning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda umumta’lim maktablarida olib borilayotgan kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarida o‘quvchi yoshlarni shaxsiy biznes va xususiya tadbirkorlikka yo‘naltirishni ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish bitiruvchilarni bandligini ta’minlashga va ishsizlikni olib olishga erishgan bo‘lamiz.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, Qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak T.2017 y 104 b.3.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi «O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi PF-6097-sod Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Farmoni
5. Семенов А.К., Маслова Е.Л. Психология и этика менеджмента и бизнеса: Учебное пособие. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К?”, 2006.
6. K.A.Mixaylovna “Ko‘p yo‘nalishli ta’lim sharoitida kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning psixologik omillari”
7. A.M. Turg‘umbaeva, O. X. Aymaganbetova, E. T. Odilova, J. Seytnur KazNU axborotnomasi. “Psixologiya va sotsiologiya seriyasi” 2020 yil